

## GLOBALASHUV DAVRIDA O‘ZBEK TILINING O‘RNI

Achilov Oybek Rustamovich

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti v.b.

Sayidova Madina Abdurasul qizi

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek tilining o‘rni, uning takomillashishi, ommaga dolzarb targ‘ib qilinishi, uning yo‘qolishining oldini olish to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Nafaqat, uning ahamiyati yoki yechimlari balki u bilan muloqot chambarchas bog‘liqligi borasida ham tushuncha berib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Jamiyat, muloqot, o‘lik tillar, Navoiy, Lutfiy, sheva, IELTS, reglament

### Kirish

Til har bir millatning ulkan boyligi, qadriyati va bebaho mulki hisoblanadi va har bir xalqning o‘zi hurmat va ehtirom qiladigan tiliga ega. Chunki til- bu asosiy muloqot vositasi. Til bor ekan jamiyat tirik demakdir. Lekin shu tilning yaroqsiz holga keltirayotgan ham xalqdir. Til qachon eskiradi, qachonki xalq undan foydanlanmasa, o‘sha tildagi ma‘lumot va kitoblarni o‘qimasa, til borasida yangiliklar bo‘lmasa va tadqiqotlar olib borilmasa o‘shanda iste‘moldan chiqib ketadi. Afsuski o‘zbek tili ham ana shunday qo‘shirnoq ichidagi “o‘lik tillar” qatoriga qo‘shilib bormoqda. Bu maqolada esa sabab va yechimlarni ko‘rsatib o‘tmoqchiman.

### Asosiy qism

1989-yil 21- oktabrda “Davlat tili haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ko‘ra qabul qilingan. Tilshunos olimlarning fikriga ko‘ra, turkiy tillar eramizning IV asrida uch guruhga bo‘lingan hamda qarluq, qipchoq, o‘g‘uz guruhlarini vujudga kelgan. Bular orasida eng qadimgi yozuv tili qarluq guruhi zaminida shakllangan azaliy o‘zbek tilidir. Tarixda eng ko‘p adabiy va ilmiy asarlarni ham shu tildan foydalanib, ijod qilishgan. Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Bobur singari so‘z ustalari



o'zbek tilimizga o'z hissalarini qo'shib, tilni yanada sayqallantirishgan. Taniqli rus tarixchisi A.P.Grigoryev shunday degan: "O'sha paytlarda (XIII-XIV asrlar) Oltin O'rdada so'zlashuv va yozuv tili sifatida qipchoq lahjasi qo'llanilgan bo'lsada, rasmiy yozishmalar va adabiy matnlarda Chig'atoy lahjasi, ya'ni eski o'zbek tili qo'llanilgan". Mustaqillik yillaridan so'ng o'zbek tilimizga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Buning natijasida esa o'zbek tili davlat tili, milliy madaniyat va ma'naviyatni ifodalovchi muloqot vositasi darajasiga ko'tarildi va isbotini esa O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasining 4-moddasiga misolda ko'rishimiz mumkin: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi." [3-9]

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zbek tilimiz yo'qolish payida turibdi. Bunga yetarlicha sabablar mavjud. Masalan farzandlarni bolaligidanoq o'z tilimizga o'rgatish o'rniga, bog'cha va maktablardagi rus va ingliz tili muassasalarga beryapmiz. "O'g'lim rus tilida zo'r gapiradi, qizim ingliz tilini mendan yaxshi biladi" deb maqtandigu, ammo o'zbekcha salom bermasligiga e'tibor ham qilmayapmiz. [1-3] O'zbek tilini bilmasliklari orqasidan milliy qadriyatlarimizni yo'qotib borayotganimizni o'ylab ham ko'rmayapmiz.

Undan tashqari, hozirgi televideniya orqali uzatilayotgan ayrim ko'rsatuvlarda ham o'zbek tilimizga e'tiborsizlik qilishmoqda. Shevalar aralashtirib, uning ustiga ruscha so'zlar qo'shishmoqda (ko'rvossammi, davayte, jichcha kabi) biz tomoshabinlar bunga loqaydlik bilan qarab, tomosha qilishda davom etmoqdamiz. [1, 10-18] Vaholanki, televideniya va jurnalistika sohalarida sof adabiy o'zbek tili ishlatilishi lozim.

Hozirgi yosh avlod ingliz va rus tillarida to'garaklarga qatnab, shu tillardan (misol uchun IELTS) sertifikatlarni qo'lga kiritishmoqda. Bu albatta ham quvonarli holat, ham achinarli. Quvonarlisi shuki, til sohasida o'qib, chet davlatlariga grant asosida o'qishga qabul qilinishmoqda, achinarlisi esa o'zbek tilidan o'zlari bilmagan holda foydanlanmay qo'yishmoqda ya'ni jamiyat o'rtasidagi muloqot boshqa tilda bo'lmoqda.



## Yechimlar

Tilimizni saqlab qolishga asosiy yechimlaridan biri bu tilimizga doir atama va terminlarni nutqimizda qo'llash va o'rganish. Masalan, deylik temir yo'l transporti shunday sohaki uni boshqa soha egalari tushunmasligi mumkin. Misol uchun, "reglament" degan me'yoriy qoida bor. Har bir davlat temir yo'llar harakatini yagona markaz orqali boshqarilishida ana shu reglament qoidalariga amal qilinishi shart. Boshqa sohalarning ham o'z terminlari mavjud va ana shu atamalarni o'rnida ishlata olishimiz tilimizni mustahkam qilishga yordam beradi.

Boshqa tomondan olib qarasak, kitobxonlik tilni asralishiga yana bir yo'l. Qancha ko'p mutolaa bo'lsa, tildagi buzib so'zlashish kamayadi, o'zbek tilidagi so'z boyligi oshadi va ularning mohiyatini anglay oladi, nutqni ravon qilishga yordam beradi. Masalan, hozirda deyarli yoshlar adabiy o'zbek tilida emas, balki "ko'cha" tilida muloqot qilishadi, xuddi "wow" so'zining asl ma'nosi "ajabo" [2], "televizor - zangori ekran", "telefon- uyali aloqa vositasi", "samalyot-uchiq", "avtobus-ko'p kursi", "bro- o'rtoq" bo'lganidek.

Yana shuni aytish joizki, davlat idoralari ham lotin yozuvida emas, balki ko'p hollarda krill yozuvidan foydalanishadi. Faqatgina ustki qismi lotin yozuvida bo'ladi lekin ichki ma'lumotlar boshqa yozuvda, Yozuvning ham tilga ta'siri katta albatta chunki fikrlarimizning ifodasi bu yozuv. Qaysi tomonga yo'naltirilsa shu tarafdin ketadi. Biz buning uchun eng yosh avlodlarga maktab davridanoq o'zbek tili va lotin yozuvi asosida ta'lim bersak, tilning taraqqiyoti ko'tariladi. Albatta, faqatgina "so'z turkumlari" bilan cheklanibgina qolmay, balki eski o'zbek yozuv tarixi, metodologiya, orfografiya, orfoepiya, so'zlarning tuzilishi, leksikologiya va shunga o'xshagan turlarini va tilning o'tmishini chuqurroq o'rgatsak, tilning kengayishiga va to'g'ri rivojlanishiga hissa qo'shgan bo'lamiz.

## Xulosa

Xulosa shuki, o'zbek tilimizni asrab-avaylash, uni kelajak avlodga yetkazish va uni saqlab qolishimiz bizning qo'limizda. Ona tilimizni rivojlantirishimizga, bu til zahirida qanchadan- qancha boyliklar yotganini ochib berishga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Zero, mashhur jadidchimiz Abdulla Avloniy aytganidek: "Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".



## References:

1. Til.gov.uz "O'z tilini bilmaslikdan yo'qolib borayotgan qadriyatlar, onajondan "mam"ga, otajondan "pap"gacha... Norbo'ta Boboxolov 22.04.2020
2. <https://interonconf.org> "Yo'qolib borayotgan" o'zbek tili yoxud ona tilimizni asraylik! Rustamova Jasmina Uktam qizi 2023yil
3. [uznature.uz/uz/site/news?id=1014](http://uznature.uz/uz/site/news?id=1014) "Milliy tilni yo'qotmoq- millat ruhini yo'qotmoq"dir R.U.Usmanov 19.09.2020
4. Rustamovich, A. O. (2024, March). LEXICAL, STYLISTIC AND GRAMMATICAL TRANSFORMATIONS IN "TUESDAYS WITH MORRIES" STORY IN TRANSLATION. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 3, No. 4, pp. 208-214).
5. ACHILOV, O. (2024). ILGARI SURISH VOSITALARINING JEK LONDON ASARLARIDA AKS ETISHI. *News of UzMU journal*, 1(1.3), 279-282.
6. Rustamovich, A. O. (2023). ILGARI SURISH VOSITALARINING ISTIQBOLLARI.
7. Rustamovich, A. O. (2023). TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV SEMANTIKANING O'RNI.
8. Rustamovich, A. O. (2023, November). KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA BADIY ASAR SARLAVHALARINING ILGARI SURISH VAZIFALARI. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 12, pp. 1-5).
9. Rustamovich, A. O. (2023). The Cognitive-Semantic Approach As A Methodological Basis For The Study Of Foregrounding Tools. *Genius Repository*, 24, 53-56.
10. Rustamovich, A. O. (2023). Cognitive Semantic Properties of Titles in Foregrounding. *Genius Repository*, 24, 32-34.
11. Rustamovich, A. O. (2023). ROBIN SHARMA QALAMIGA MANSUB "O'LSANG KIM YIG'LAYDI" ASARINING TARJIMASI JARAYONIDAGI LEKSIK TRANSFORMATIK TAHLILI. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022*, 2(18), 83-86.
12. Rustamovich, A. O. (2023). TARJIMA JARAYONIDA GRAMMATIK TRANSFORMATSIYANING O'RNI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(27), 161-165.



13. Rustamovich, A. O. (2023). TARJIMADAGI MUAMMOLAR. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(27), 187-193.

14. Achilov, O. (2023). TEXNIK MATN TARJIMA MUAMMOLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).

15. Achilov, O. (2023). TARJIMA JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR VA ULARNING TURLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).

16. Achilov, O. (2023). JORJ ORUELL QALAMIGA MANSUB" 1984" ASARINING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA TAHLILI, MORFOLOGIK VA LEKSIK FARQLIKLAR. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).

17. Achilov, O. (2023). ANATOMY OF LANGUAGE AND THEORETICAL ASSUMPTIONS OF COGNITIVE SCIENCE, COMPARATIVE ANALYZES. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).

18. Ачилов, О. (2023). ILGARI SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(12/2).

